

O'RTA OSIYODA AYOLLARNING HUQUQ VA ERKINLIKHLARI

Mamadiyorova Madina

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti

Xalqaro iqtisodiyot va menejment fakulteti 1-bosqich talabasi

mamadiyorovamadina472@gmail.com

Anotatsiya: Maqolada O'zbekiston xotin-qizlarning huquq va erkinliklari bilan bog'liq bir qator muammolar, ularning sabablari va ayrim yechimlari yoritilgan. Shuningdek, mamlakatimizda xotin-qizlarga qaratilayotgan e'tibor, ular uchun yaratilgan imkoniyatlar haqida ham so'z yuritildi. Bundan tashqari, Markaziy Osiyo mamlakatlarida ayollar bilan bog'liq ayrim muammolar ham aytib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Qozog'iston, Tojikiston, O'zbekiston, Qirg'iziston, BMT, ''kelin o'g'irlash'', gender tenglik. YUNESKO, "shisha shift", CEDAW, Markaziy Osiyo, Harakat platformasi.

Gender tengligi bu erkaklar va ayollar o'rtasida turli xil yo'nalish va sohalarda o'zaro tenglini ko'rsatuvchi jarayon hisoblanadi. Bularga ijtimoiy, iqtisod va siyosiy kabi asosiy sohalarni olishimiz mumkin. Bugungi kunda ayollarga nisbatan kansitilish, zo'ravonlik va boshqa bir qator zulmga sabab bo'ladigan munosabatlarga barham berish va oldini olish jahon miqyosidagi ijtimoiy va siyosiy o'zgarishlarning asosiy jihatni sifatida e'tirof etilgan. 19-asr oxiri va 20- asr boshlarida gender tengligi uchun kurashishni ayollarning harakatlari orqali ko'rishimiz mumkin, ammo bu kabi jarayonlar barcha jamiyatlarda ham insonlar tomonidan yaxshi munosabat bildirilmagan. Masalan, G'arbda bu mehnat harakati va sufragistlar harakatida ko'rinsa, Sharqda, xususan bizning jamiyatimizda esa o'zlarini erkin his qilishlari uchun paranjini olib tashlash orqali boshlangan deyishimiz mumkin. 1980-yillardan boshlab, gender sohasida "shisha shift" deb nomlanuvchi, birinchi navbatda ayollarning kasbiy faoliyatida davomida paydo bo'ladigan kansitilishlariga ishora qilish uchun ishlatiladigan tan olingan hodisa mavjud. Ushbu cheklovlar natijasida ayollar kasbiy faoliyati davomida va jamiyatda ko'plab ikkilanishlarga duch kelishmoqda. Bugungi kunda gender tengligining muhimligini YUNESKO ning 2008-2013- yillarga mo'ljallangan o'rtal muddatli strategiyasida ayollar va erkaklar o'rtasidagi tenglik ikkita ustuvor maqsaddan biri sifatida belgilanganidan ham ko'rishimiz mumkin. Shundan so'ng bu masala tashkilot faoliyatining eng qizg'in va dolzarb sifatiga aylandi. Ushbu strategiya YUNESKO ning deyarli barcha yo'nalishlarida ya'ni tadqiqot, ilmiy salohiyatni oshirish, ta'lim, fan, madaniyat, aloqa va axborot kabi sohalarda gender tengligini taminlash va ushbu yo'nalishlarda ayollar faolligini oshirishga e'tibor qaratadi. Tashkilot shu maqsadni amalga oshirish uchun birinchi navbatda 2008-2013-yillarga mo'ljallangan ustuvor harakatlar rejasini ishlab chiqdi. Ushbu reja 6 yil davomida YUNESKO tashkiloti tomonidan tuzib chiqilgan ezgu g'oyalarni amalga oshirishning amaliy yo'l xaritasi bo'lib xizmat qildi. YUNESKO ayollarga bo'lgan zo'ravonlikning va ularni kansitishning har qanday shaklini inson huquqlarining buzilishi va xalqaro tashkilotlar tomonidan tan olingan tinchlik, barqaror rivojlanish hamda rivojlanish

maqsadlariga erishish yo'lidagi ulkan to'siq deb hisoblaydi. 1995-yil 4-15-sentabrda o'tkazilgan xotin-qizlar maqomi bo'yicha |V Butunjahon konferensiyasida bir ovozdan maqullangan Pekin deklaratsiyasi va harakatlar platformasi bugungi kunga qadar o'z ahamiyatini yo'qotmagan . Deklaratsiyada takidlanishicha ommaviy axborot vositalari (OAV) boshqa muammoli vaziyatlar bilan bir qatorda xotin qizlar qadr-qimmatini oshirishga ham salmoqli xissa qo'shishi ochiq e'tirof etilgan. Mazkur hujjatda xotin-qizlarning davlat va xalqaro taraqqiyot tashkilotlari faoliyatidagi ishtirokini oshirish, xususan, aloqa tizimlarida, ayniqsa, ommaviy axborot vositalarida ayollarning qadrsizlanishi va kamsitilishini bartaraf etish bo'yicha amaliy chora-tadbirlar taklif etilgan. Aytish joizki, gender muammosi jamiyat barqarorligi va farovonligiga katta hissa qo'shadi. Mamlakatimizda bu masala davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 46-moddasida "Ayollar va erkaklar teng huquqlarga ega", deb belgilangan. Shuningdek, mazkur qonun ijrosini ta'minlash, xotin-qizlar va qizlarning jamiyat va oiladagi mavqeini mustahkamlashga qaratilgan turli huquqiy-me'yoriy bazalar yaratilgan. Xususan, 2019-yil 2-sentabrda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining "Ayollar va erkaklarning teng huquq va imkoniyatlarining kafolatlari to'g'risida"gi qonuni mamlakatimizda gender tengligini ta'minlashda eng muhim va asosiy huquqiy hujjat sifatida e'tirof etilgan. Mazkur qonun milliy qonunchiligidizga birinchi marta "gender" atamasini kiritdi. Ushbu qonunga ko'ra, "Gender - bu ayollar va erkaklar o'rtasidagi munosabatlarning ijtimoiy hayoti va faoliyatning barcha sohalarida, jumladan, siyosat, iqtisodiyot, huquq, mafkura va uning ijtimoiy jihatni madaniyat, ta'lim va fan sohalarida namoyon bo'ladi". Shuning uchun gender tengligi nafaqat ayollarning ustunligini ta'minlash, jamiyatda erkaklar va ayollar teng imkoniyatlarga ega ekanligini bildiradi. Umuman olganda, gender tengligi nafaqat ayollarni huquq va erkinliklarini ta'minlash, balki ularni himoya qilishdir. Bu erkaklar uchun ham himoya vositasidir. Ayollar uchun kasb tanlash ham qiyin. Go'yoki ayollar uchun bir nechta kasblar mavjud ko'rindi yoki buyuriladi. Masalan, hamshiralik, o'qituvchilik, tikuvchilik shular jumlasidandir. Jamiyatning boshqa sohalarida ayollarning roli nisbatan kichikdir. Chunki ko'plab tashkilotlar ayollarni ishga olishni istashmaydi. Buning sababi sifatida agar qiz bola ishga kirmoqchi bo'lsa turmush qurgandan so'ng bir qancha muddat ishlay olmasligi mumkinligini yoki turmush qurbanayol ish so'rab borsa farzandli bo'lsa ishlay olmay qolishi mumkinligini ko'rsatishadi. Bu holat ham ijtimoiy munosabat ta'siri ostidagi ijtimoiy hodisadir. Jahon statistik malumotlariga ko'ra gender muammolari yo'q bo'lgan mamlakatlarda aniq fanlarda erkaklar va ayollarning natijalari tengdir. Bunga Skandinaviya mamlakatlarini misol qilib keltirishimiz mumkin. Gender muammolari bo'lgan mamlakatlarda esa boshlang'ich sinflarda aniq fanlar bo'yicha qizlar va o'g'il bolalar teng bo'lsa, yuqori sinflarda o'g'il bolalarning ilmiy sohadagi natijalari qizlarnikidan ancha yuqori ketayotganini ko'rishimiz mumkin. Afsuski, ijtimoiy jarayonda qizlarning ta'lim-tarbiyasiga kam e'tibor qaratilmoqda. Qizlar asosan uy ishlari bilan ovvora bo'lib qolishmoqda. Aslida esa jamiyatda ayollarning bilim olishi juda muhim. Chunki ayol bo'lajak ona hisoblanadi. Onalar millat tarbiyachisidir. Inson huquqlarining ajralmas qismi sifatida xotin-qizlarning huquqlariga rioya qilinishi sohasidagi vaziyat ham jahon hamjamiatini qattiq tashvishga solmoqda . Ayollarning erkaklar bilan tengligiga erishish borasidagi muayyan yutuqlarga qaramasdan, ba'zi jamiyatlardagi ayollar uchun haqiqiy tenglik

hali-hamon orzuligicha qolib ketmoqda. Masalan, O'rta Osiyo davlatlari ichidan Qozog'istonni oladigan bo'lsak, bu davlatda oiladagi zo'ravonliklar tufayli har yili tahminan 400 nafar ayol hayotdan ko'z yumadi. 2021- yilda Qozog'istonda ayollarga qarshi sodir etilgan jinoyatlar 91631 tani tashkil etgan. O'zbekistonda esa bu 18000 tani tashkil etgan. Qozog'iston va Qирг'изистон davlatlarida "kelin o'g'irlash muammosi". Ayollarga nisbatan huquqbuzarlik holatlari, asosan, kelin o'g'irlash va majburiy turmush qurish bilan bog'liq. Odam o'g'irlashning har qanday ko'rinishi Qozog'iston qonunchiligidagi taqiqlangan bo'lsada, ayollarni nikohga majburlash maqsadida o'g'irlash holatlari butun mamlakat bo'y lab jiddiy muammo bo'lib qolmoqda. Qирг'изистонда ham kelin o'g'irlash qonunan taqiqlangan bo'lsada , bunday holatlar tez-tez sodir bo'lib turadi.

Tojikistonda kelin o'g'irlanishi nisbatan kam bo'lsada, qizlarni zo'r lab turmushga berishadi.

" Tojikistonda ayollar bilan bog'liq vaziyatlarni yaxshilash uchun bir qancha chora tadbirlar olib borilayotgan bo'lsada, hali hamon kelishilgan to'ylar o'tkazib turiladi. Ayrim qishloqlarda bu odad bugungi kunga qadar saqlanib qolgan. Ikki oiladagi ota-onalar farzandlarini uylantirishga kelishib olishadi, hech kim qizning fikri bilan qiziqmaydi ham". - "Tojikistonda tadbirkor ayollar" ijtimoiy dastur raxbari Feruza Nosirova.

O'zbekistonda ayollar huquqlari buzilishining eng ko'p tarqalgan turi oiladagi zo'ravonlik hisoblanadi. Oiladagi zo'ravonlikni aniqlash ayniqsa qiyin, chunki u inson huquqlari muammosi sifatida tan olinishi qiyin bo'lган yashirin holatlarni o'z ichiga oladi. Sabab esa an'anaviy milliy muhitda eskirgan qarashlar va tushunchalarning mavjudligidir.

Ayollar va qizlarga nisbatan zo'ravonlikka qarshi kurash. 2022-yil 29- noyabr kuni Toshkent shahrida gender masalalariga bag'ishlangan hududiy davra suhbati bo'lib o'tdi. O'tkazilgan yig'ilishdan maqsad Markaziy Osiyo mamlakatlarida ayollar va qizlarga nisbatan zo'ravonliklarning oldini olish va ularga qarshi kurashish bo'yicha huquqni muhofaza qilish organlarining mavjud amaliyotini sarhisob qilishdan iborat. Jamiyatda ayollarning o'rni muhim ekanligini, ularga nisbatan sodir etilayotgan zo'ravonliklarni oldini olish, jamiyatda ularni o'z o'rnini topishi uchun shart sharoitlar yaratish kerakligini ko'rsatib beradigan qarorlardan yana biri bu 25-noyabr BMT tomonidan xalqaro ayollarga nisbatan zo'ravonlikka qarshi kurashish kuni deb e'lon qilinganligidir. Bundan tashqari ushbu qaror doirasida 2016-yil gender zo'ravonlikka qarshi 16 kunlik loyihamda Markaziy Osiyodagi 5 ta universitet ham ishtirok etdi. 14-noyabrdan 1-dekabrga qadar ushbu universitetlarda ayollar va qizlarga nisbatan zo'ravonlik muammosiga bag'ishlangan talabalar orasida turli xil loyihamalar jumladan, munozaralar va ijtimoiy roliklar tanlovlari o'tkazildi. Ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy sohalar bilan bir qatorda davlat boshqaruvida ham xotin-qizlarning rolini oshirish davlatni rivojlantiradigan asosiy vazifalardan biridir. 2018-yil 20-oktabrda O'zbekistonda hukumat tomonidan 2030-yilgacha b0'lган davrda davlatni rivojlantirish bo'yicha "milliy maqsadlar va vazifalarni amalga oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida" gi qaror qabul qilindi. Qarorning vazifasi xotin-qizlarni nafaqat ijtimoiy va iqtisodiy sohada balki siyosiy sohalarning barcha darajasida ham rahbarlik qilishi uchun teng imkoniyatlarni ta'minlashdan iboratdir. "Rahbarlik mavqeida erkaklar bilan bir qatorda ayollarning ham faoliyat olib borishi barcha mamlakatlarda ijobji rivojlanishga sabab bo'lgan. Bundan tashqari rahbarlik mavqeida ayollarni rolini oshirish,

ularning vakolatlarini kengaytirish ayollarning manfaatlarini himoya qilishni yaxshilaydi". deya ta'kidlagan BMT taraqqiyot dasturining O'zbekistondagi doimiy vakili Xelena Freyzer. "Mamlakatimizda xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish maqsadida turli xil chora tadbirlar olib borilmoqda. Turli xil sohalarda ayollar o'z iqtidor va qobiliyatlarini namoyish etishi uchun ularga keng imkoniyatlar yaratilmoqda. Bundan tashqari ularning huquq va qonuniy manfaatlari qonuniy himoyasi ta'minlanmoqda", - dedi bosh vazir o'rinosari Tanzila Narbayeva, O'zbekiston Xotin qizlar qo'mitasi. Butun dunyoda bo'lgani kabi O'zbekistonda ham iqtisodiy sohalar bo'yicha ayollar erkaklardan ortda qolmoqda. 2021-yil yakuniga ko'ra bu ko'rsatkich ayollar orasida 41,3 foiz va erkaklar orasida 58,7 foizni ko'rsatmoqda. O'zbekistonda ayollar 30 yoshdan boshlab mehnat bozorida iqtisodiy faol hisoblanishadi. Buning sababi bugungi kunda mamlakatda ayollarning o'rtacha turmush qurish yoshi 22,3 yosh. Turmush qurgandan so'ng esa kamida 2 yil tug'ruq ta'tili olishga majbur bo'lishadi. unda keyin ishga qaytadi, lekin qisqa vaqtdan so'ng takroriy tug'ruq sababli yana ta'tilga chiqish ehtimolligi yuqoriligidcha qolmoqda. O'zbekistonda "2030-yilgacha bo'lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi Milliy maqsad va vazifalar" doirasida ustuvor maqsadlardan biri sifatida ayollarni ish bilan ta'minlash ularni jamiyatdagi va oiladagi o'rnini mustahkamlash belgilangan. Ushbu maqsadga erishish uchun so'nggi yillarda yurtimizda "ayollar daftarlari", "temir daftar" va "yoshlar daftar" lari ishlab chiqildi. Bu kabi daftarga kirgan ayollarga moddiy yordam berilib, ish bilan ta'minlandi. Ayollarning ta'lif olishi uchun ayollarga oliy ta'limga kirishda ham bir qancha imtiyozlar belgilandi. Bundan tashqari magistraturada tahsil oladigan xotin-qizlarning kontrakt pullari to'liq to'lab beriladigan bo'ldi. Butun dunyoda ayollar bilan bog'liq bo'lgan vaziyatlarni yaxshilash maqsadida davlatlar tomonidan CEDAW konvensiyasi ishlab chiqildi. CEDAW ayollarga nisbatan kamsitishning barcha shakllariga barham berish to'g'risidagi konventsiyani anglatadi. Bu 1979 yilda Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasi tomonidan qabul qilingan xalqaro shartnomadir. CEDAW ko'pincha ayollar huquqlari to'g'risidagi xalqaro qonun loyihasi sifatida tavsiflanadi, chunki u ayollarga nisbatan kamsitish nimani anglatishini belgilaydi va bunday kamsitishlarga barham berish uchun milliy harakatlar kun tartibini belgilaydi. Konventsiya 189 ta davlat tomonidan ratifikatsiya qilingan bo'lib, u inson huquqlari bo'yicha eng ko'p ratifikatsiya qilingan shartnomalardan biriga aylandi. Unda siyosiy faollik, ta'lif, sog'liqni saqlash, bandlik va boshqa muhim sohalar qamrab olingan bo'lib, ayollarning hayotning barcha jabhalarida to'liq va teng ishtirokini ta'minlash choralarini ko'rishga chaqiradi. CEDAW muqaddima va 30 ta moddadan iborat bo'lib, unda ayollarning huquqlari va ushbu huquqlarni himoya qilish bo'yicha ishtirokchi-davlatlarning majburiyatları bayon etilgan. U nafaqat ayollarning huquqiy tengligiga, balki hayotning barcha sohalarida moddiy tenglik va ayollarga nisbatan kamsitishlarga barham berish zarurligiga ham urg'u beradi.

Umuman olganda, CEDAW Markaziy Osiyoda ayollar huquqlari va gender tengligini ta'minlashda katalizator bo'lib, hukumatlar, fuqarolik jamiyatni va xalqaro tashkilotlarga mintaqada ayollar duch keladigan muayyan muammolarni hal qilishda hamkorlik qilish uchun asos yaratdi.

CEDAW O'zbekistonda gender tengligi va ayollar huquqlari bilan bog'liq qonunlar va siyosatlarni shakllantirishda muhim rol o'ynadi. 1995-yilda CEDAWni ratifikatsiya qilish

orqali O‘zbekiston ayollarga nisbatan kamsitishlarni bartaraf etish va hayotning turli sohalarida gender tengligini ta’minlash uchun barcha tegishli choralarini ko‘rish majburiyatini oldi.

Umuman olganda, CEDAW O‘zbekistondagi ijobiy o‘zgarishlar uchun katalizator bo‘lib xizmat qildi va hukumatni gender asosidagi kamsitishlarni bartaraf etishga va mamlakatda ayollar maqomini oshirishga undadi.

O‘zbekistondagi ayollar bilan bog’liq ayrim muammolar va ularning sabablari, kelib chiqish oqibatlari va ularning yechimlarini o‘rganish maqsadida 200 ga yaqin aholi o‘rtasida so‘rovnama o’tkazildi. So‘rovnama natijalariga ko‘ra O‘zbekistonda ayollarning huquq va erkinliklari to’liq ta’minlanayaptimi? degan savolga pie chartda ko’rsatilganidek so‘rovnama qatnashchilarining 55% I ha qolgan 45% i esa yo’q deb javob bergen.

Diagrammadan ko‘rshimiz mumkinki bunday muammolarni oldini olish uchun ayollarni o‘z haq huquqlaridan xabardor qilish va sodir etilgan zo‘ravonliklar, jinoyatlar uchun qa’tiy jazolar belgilash kerak. Ammo “ayollar daftari”, “yoshlar daftari”, “temir daftar” larining joriy etilishi ham bugungi kunda ayollarni ish bilan ta’minlash va ularni jamiyatda o‘z o‘rnini topishiga yordam bermoqda.

Keyingi savolga o‘tadigan bo’lsak: Sizningcha jamiyatda ayol kishining ta’lim olishi qanchalik muhim? Bu savolga so‘rovnama ishtirokchilarining 95% i juda muhim qolgan 5% i esa muhim emas deya javob bergen. So‘rovnomadan ko‘rshimiz mukinki insonlar ayol kishininh ta’lim olishi qanchalik muhim ekanligini tushunib yetishihti. Ya’ni ayol kishi o‘qisa ham qayerdadir ishlamas balki lekin bilimli farzandlarning onasi bo’ladi. Bola birinchi bo‘lib ta’lim va tarbiyani onasidan oladi. Shunday ekan ayol kishining ta’lim olishi juda muhimdir.

Keyingi savol; sizningcha bugungi kunda ayollarning siyosatdagi o‘rni necha foizni tashkil etadi? Bu savolga so‘rovnama qatnashchilarining 55% i jamiyatda ayollarning siyosatdagi o‘rni 50-60% ni tashkil qiladi deya javob berishgan. 30% ishtirokchi 30-40% qolgan 15% ishtirokchi esa 10-20% deya javob bergen. Menimcha bugungi kunda mamlakatimizda ayollarning siyosatdagi o‘rni oldingi yillarga qaraganda sezilarli darajada oshgan.

Va yana bir savol hijob bo‘yicha berildi.O‘zbekistonda maktablarda qizlarning hijob o‘rashiga ruxsat berilmayotganligiga qanday qaraysiz? Bu haqida maqolada malumot berilmagan bo‘lsada bu vaziyat ham xotin-qizlarga bog’liq bo‘lganligi uchun aholini fikrini bilishni xohladik. So‘rovnomadan shu malum bo‘ldiki aholi bu holat bo‘yicha salbiy munosabatga ega. Ya’ni ularning fikricha O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida diniy erkinlik bo‘yicha modda bor va bundan tashqari ro‘mol qizlarning ta’lim olishiga halaqit qilmaydi. Haqiqatdan ham bugungi kunda hijobli qizlarni mакtabga kiritmaslik, ulardan ro‘molini yechishni talab qilish holatlari ko‘p kuzatilmoqda. Ko‘pchilik maktablarda ustozlar faqat o‘quvchining formasi, ro‘moli va yoki soch turmagiga e’tibor berishadiyu ularning bilimi bilan qiziqishmaydi ham. Vaziyat shunday davom etsa maktablardagi asosiy masala faqat davomat va forma bo‘lib qoladi xolos. Vaholanki har doim hamma joyda bilim birinchi o‘rinda turishi kerak.

O’tkazilgan so‘rovnomadan shuni aniqlashimiz mumkinki, ta’lim olish erkaklar bilan bir qatorda ayollar uchun ham juda muhimdir. Aholining ko‘pchiligin fikricha oiladagi nizolar, zo‘ravonliklar ham asosan bilimsizlikning oqibatida kelib chiqadi.

Xulosa qilib aytganda, Markaziy Osiyoda ayollar huquqlariga oid bir qancha qonunlar qabul qilinayotgan bo'lsa-da, xotin-qizlar muammosi Markaziy Osiyodagi eng katta muammolardan biri bo'lib qolmoqda. Bu muammoga yechim topish uchun qishloqlardagi ayrim urf-odatlarni butunlay bekor qilish kerak. O'zbekistonda ham bu kabi muammolar bo'lsada, bunday muammolarni bartaraf etish uchun ko'plab ishlar olib borilmoqda. Birinchi navbatda ayollarni ta'limdagi o'rnni mustahkamlash maqsadida oliy ta'limga kirishda ularga bir qancha imkoniyat va imtiyozlar berilmoqda. Ijtimoiy ximoyaga muhtoj ayollarga esa moddiy taraflama yordam ko'rsatilib ish bilan ta'minlanmoqda. Bu kabi imkoniyatlar mamlakatda nafaqat ayollarning mavqeining ko'tarilishga balki, ularning jamiyatda o'z o'rnni topishiga ham yordam bermoqda. Umuman olganda bugungi kunda O'zbekistonda ayollarning ta'lim olishi, ishlashi, jamiyatda va oilada o'z o'rnni topishi uchun barcha imkoniyatlar yaratilgan va ayollar bilan bog'liq bo'lган salbiy vaziyatlar ham ijobjiy tomonga o'zgarib boryapti deya bemalol aytishimiz mumkin.

REFERENCES:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.
- 2."Xotin qizlar va erkaklar teng huquqi hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida" gi qaror(02.09.2019.).
3. BMT ma'lumotlari.
4. Ikramov , R., & Bekmirzayev, N.(2020).yurist nutqi madaniyati. Toshkent: Toshkent Akademnashr.
5. Aktamovich, I.R. & Ziyadullayevich I.A. (2020). Historical and Theological Roots of Establishing a Democratic Law in Uzbekistan . EPRA International Journal of Multidisciplinary Research (IJMR),6(10), 507-510.
6. Jo'rayev, Y.A & Ikromov, R. A.(2020). Fuqarolar ekologik nazorati :yuridik asoslari va tushunchasi. Academic research in educational sciences,(4).
7. Fayziyev, I.Sh (2020). O'zbekistonda wlwktron hukumat : mavjud imkoniyat va istiqbollar. Academic Research in Educational Sciences, 1(2), 232-240.
8. Fayziyev, I.Sh (2020). Daxldorlik tarbiyasi orqali fuqarolik jamiyatini shakllantirish. Sciense and Education
9. Sh.M.Mirziyoyev.“Yangi O,,zbekiston strategiyasi”. – Toshkent, 2021. “O,,zbekiston” NMIU.
10. O'zbekiston Respublikasining “Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish haqida”gi qonuni. Qonunchilik palatasi tomonidan 2019-yil 17-avgustda qabul qilingan, Senat tomonidan 2019-yil 23-avgustda ma'qullangan.
11. <http://pravacheloveka.uz/oz/news/m 8193>
12. <https://strategy.uz/index.php?news=1156&lang=uz>
13. <https://sherobod.uz/uz/blog/gender-tengligi/1317>
14. lex.uz
15. uza.uz/oz/posts/gender-tenglik-ta-minlanadi-17-09-2019
16. [advice.uz/oz/document/2291 — 4.37%](http://advice.uz/oz/document/2291)

17. fayllar.org/ayollar-huquqlariga-oid-milliy-qonunchilik.html
18. pravacheloveka.uz/oz/news/m11296 (<http://pravacheloveka.uz/oz/news/m11296>)
19. toshkent-vil.adliya.uz/uz/news/detail.php?ID=52663
20. yuz.uz/uz/news/ayollar-huquqlarini-himoya-qilish-x...a-milliy-mexanizmlar
(<https://yuz.uz/uz/news/ayollar-huquqlarini-himoya-qilish-xalqaro-va-milliy-mexanizmlar>)